
MUROJAATLAR QAT'IY NAZORATGA OLINDI

Fuqarolarning muammolarini hal etish, aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni kuchaytirish - bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. O'tkazilayotgan sayyor qabullar bu boradagi ishlarning amaliy natijasidir.

Bugun, 5 may kuni tuman hokimi Sh.Turdaliyev tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oltiariq tumanidagi Xalq qabulxonasida aholi bilan navbatdagi sayyor qabuli o'tkazildi.

Unda hokimlikning mas'ul xodimlari, tuman Xalq qabulxonasi va tegishli idora va tashkilotlar vakillari ishtirok etdilar.

Qabul davomida fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoyalash va ularni qiynayotgan muammolarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratildi. Sayyor qabulda fuqarolar tomonidan 20 dan ortiq murojaat bo'ldi. Ularning aksariyati uy-joy, ishga joylashish, bankdan kredit olish, elektr energiyasi ta'minoti, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jalik, yo'llarni ta'mirlash sohasidagi muammolar bilan bog'liq bo'ldi.

Shu kuni barcha fuqarolarning murojaatlari atroflicha o'rganib chiqildi. Ijrosi vaqt talab etgan muammolar yuzasidan tuman hokimi tomonidan mutasaddilarga aniq vazifalar belgilanib, ijrosi yuzasidan muddat belgilandi va qat'iy nazoratga olindi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-05-05 15:26:02